

TASVIRIY SAN’AT VA UNING TURLARI

Yusupova Obidaxon Olimjon qizi*Andijon davlat pedagogika institute Tasviriy san’at va muhandslk grafikasi yo`nalishi 2-kurs 202-guruh talabasi**Emeil: obidaxontuxtayeva@gmail.com*

Annotatsiya: *Maqolamda asosan tasviriy san’at va uning asosiy turlari haqida ilmiy-nazariy ma’lumotlar yoritilgan. Tasviriy san’at insoniyat madaniyatining muhim tarkibiy qismi bo’lib, u orqali inson o’zining his-tuyg’ulari, dunyoqarashi va estetik qarashlarini ifodalaydi. Maqolada tasviriy san’at tushunchasi, uning asosiy turlari — rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik va amaliy-bezak san’atining o’ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, tasviriy san’atning jamiyat hayotidagi o’rni, inson tarbiyasiga ta’siri, estetik didni shakllantirish hamda milliy qadriyatlarni asrab-avaylashdagi ahamiyati yoritilgan. Tasviriy san’atning ma’naviy va madaniy taraqqiyotdagi o’rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so’zlar: *tasviriy san’at, rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, amaliy-bezak san’ati, madaniyat, estetik tarbiya, badiiy tafakkur, ijodkorlik, ma’naviyat, milliy qadriyatlar, san’at tarixi.*

Kirish. Tasviriy san’at – borliqdagi voqea-hodisalar, inson, tabiat va predmentlarni obrazlar orqali aks ettiruvchi san’at turidir. U insonning estetik didini shakllantiradi va his etishga yordam beradi. Tasviriy san’at vositalariga ko’ra asosiy turlarga bo’linadi. Tasviriy san’at -rangtasvir, haykaltaroshlik, grafikani birlashtirgan san’at turidir. Tasviriy san’at turlari o’z xususiyatlariga qarab borliqni obyektiv mavjud sifatleri bu hajm, rang, fazo, va predmetning shakli va harakatning o’zgarish hissini yaratadi. Tasviriy san’at insoniyat madaniyatining eng qadimiy va muhim sohalaridan biridir. U orqali odamlar o’z fikri, his-tuyg’usi, dunyoqarashi va orzu-intilishlarini ifoda etadilar. Tasviriy san’at inson qalbiga estetik zavq bag’ishlaydi, tafakkurni rivojlantiradi hamda jamiyat madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladi. Qadim zamonlardan buyon insonlar devorlarga rasmlar chizish, haykallar yasash va turli bezaklar yaratish orqali o’z hayotini aks ettirib kelgan. Tasviriy san’at asarlari inson ruhiyatiga kuchli ta’sir ko’rsatadi. Chunki san’at orqali go’zallik, ezgulik, tabiat, inson hayoti va tarixiy voqealar tasvirlanadi. Har bir xalqning madaniyati va urf-odati tasviriy san’atda o’z ifodasini topadi. Shu sababli tasviriy san’at nafaqat estetik, balki ma’naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Tasviriy san’at bir necha asosiy turlarga bo‘linadi. Har bir turning o‘ziga xos uslubi, vositalari va ifoda imkoniyatlari mavjud. Ulardan biri rangtasvir bunda bo‘yoqlar yordamida yaratiladigan tasviriy san’at turidir. Bu san’at turi eng keng tarqalgan va mashhur yo‘nalish hisoblanadi. Rassom ranglar orqali voqelikni, inson qiyofasini, tabiat manzaralarini yoki turli voqealarni tasvirlaydi. Rangtasvir – eng muhim va keng tarqalgan turlaridan biri bo‘lib, unda ranglar yordamida yaratiladi. Rangtasvirning janrlariga portret, manzara, natyurmort, tarixiy janr, maishiy janrlar kiradi. Rangtasvirda uzoq vaqt saqlanadigan moyboyoqlardan, akvarel esa yengil va shaffof ranglardan iborat bo‘ladi. Guash, tempera, akril bo‘yoqlar qalin va yorqin ranglardir. Rangtasvirning ahamiyati shundaki insonning estetik didini rivojlantiradi, tabiat va hayotni chuqurroq tushunishga yordam beradi va ijodkorlikni kuchaytiradi.

Grafika bu tasviriy san’atning chiziq, nuqta va kontur asosida yaratiladigan san’at turi bo‘lib qora-oq yoki kam ranglarda ifodalaniladi. Grafika san’ati eng qadimiy va tasvir yaratish madaniyati bilan chambarchas bog‘liq. Grafika san’atida asosiy ifoda vositasi chiziq hisoblanadi. Rassomlar tur qalinlikdagi chiziqlar, soya va kontur orqali tasvir yaratadilar bu san’at turi ko‘pincha fikrni tez va aniq yetkazish va voqeani sodda shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Grafika san’ati qadim zamonlardan rivojlaniblangan. Qadimgi g‘or rasimlari dastlab grafik tasvirlar, o‘rta asrlarda qo‘lyozma bezaklari, zamonaviy grafikalariga aylanib ketdi. Zamonaviy grafika bugungi kunda faqat qo‘l mehnati bilan emas, balki kompyuter dasturi yordamida ham yaratiladi. Grafika san’ati chiziq va shakillar orqali aniq va ifodali tasir yaratadi va qadimdan hozirgacha rivojlanib bugungi kunda ham bosma, kitob, reklama va dizayn sohalarida keng qo‘llanilmoqda.

Haykaltaroshlik — tasviriy san’atning eng qadimiy va muhim turlaridan biri bo‘lib, unda inson, hayvon, tabiat yoki turli predmetlarning hajmli tasviri yaratiladi. Bu san’at turi uch o‘lchamli shaklga ega bo‘lgani uchun boshqa tasviriy san’at turlaridan farq qiladi. Haykaltaroshlik asarlari tosh, marmar, yog‘och, loy, metall, bronza va gips kabi materiallardan ishlanadi.

Qadim zamonlardan buyon haykaltaroshlik insoniyat madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Dastlab odamlar diniy e‘tiqodlar, hukmdorlar yoki tarixiy voqealarni abadiylashtirish uchun haykallar yaratganlar. Haykaltaroshlik — bu hajm, shakl va fazo orqali badiiy obraz yaratish san’atidir bo‘lib rassom yoki haykaltarosh turli materiallarga ishlov berib, real yoki ramziy obrazlarni yaratadi. Haykaltaroshlikda tosh, yog‘och, loy, gips, zamonaviy plastmassa kabi materiallardan foydalaniladi. Haykaltaroshlik turlariga dumaloq haykal, relief, monumental haykaltaroshlik, deko‘rativ kabi turlari bor. Dumaloq haykal – har tomonlama ko‘rish mumkin bo‘lgan haykal turi barelyef – tasvir yuzasidan biroz chiqib turadi, gorelyef – tasvir yuzasidan ancha bo‘rtib chiqadi, dekorativ haykaltaroshlik – bog‘, bino va interyer

bazaklarida ishlatiladi. Haykaltaroshlik tarixiy shaxslarni abadiylashtiradi, shahar va bog'larni bezaydi.

Xulosa: tasviriy san'at va uning turlari insonning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari va taffakurini aks ettiruvchi eng nozik san'at turlaridan biridir. Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik va amaliy san'at kabi yo'nalishlar orqali insoniyatning tarixi, madaniyati va ma'naviyati namoyon bo'ladi. Tasviriy san'at nafaqat go'zallik yaratadi, balki insonni fikirlashga, rivojlanishga, borliqni chuqur his etishga undaydi. Ayniqsa, tasviriy san'at yosh avlodning estetik didini shakillantirishda ijodiy fikirlashini rivojlantirishda va milliy qadryatlarni asrab-avaylashda katta ahamiyatga ega. Bir yaratilgan san'at asarlari ma'lum bir davirning ruhi, madaniyati va inson tafakkurini aks ettiradi. Shu sababli san'at asarlari nafaqat bugungi kun uchun balki kelajak avlod uchun ham ma'naviy meros bo'lib qoladi. Bugungi kunda tasviriy san'at va uning turlaridan jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlaniangi va g'oyalar bilan boyib bormoqda. San'at insonni go'zallikka oshno etib, sabir – toqat, kuzatuvchanlik kabi fazilatlarini shakillantirib madaniyatni boyituvchi hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi tasviriy san'at va uning turlari hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Bulatov S.S. Tasviriy san'at asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
3. Abdirasilov S. Rangtasvir va kompozitsiya. – Toshkent, 2012.
4. Hasanov R. Tasviriy san'at tarixi. – Toshkent: Fan, 2006.
5. Ahmedov M. Haykaltaroshlik san'ati asoslari. – Toshkent, 2014.
6. Boymetov B. Qalamtasvir asoslari. – Toshkent: Ijod dunyosi, 2011.
7. Nurtoyev N. San'atshunoslik asoslari. – Samarqand, 2015.
8. Jalolov M. Grafika va dizayn san'ati. – Toshkent, 2013.
9. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
10. Jahon san'ati tarixi. – Toshkent: Sharq, 2009.
11. Leonardo da Vinchi san'ati va ijodi haqida maqolalar to'plami. – Toshkent, 2016.
12. Tasviriy va amaliy san'at metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018.
13. Bakhtiyorovich, Ismonov Khurshidbek, and Ruziyev Nuriddin Mukhammadaliyevich. "Pairing, Their Own Aspects and Corresponding Methods of Work with Pairing in the Autocad Software." *International Journal on Orange Technologies* 3.12 (2021): 211-216.
14. qizi Abduraimova, Muazzamoy Abduqodir. "PERSPEKTIVA." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 11. 2022.

15. Xurshidbek, Ismonov, Rustamov Umurzoq, and Abduraimova Muazzamoy. "MARKAZIY VA PARALLEL PROYEKSIYA ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO ‘RINISHLARI." Educational Research in Universal Sciences 1.4 (2022): 70-81.

16. Ismonov, Xurshidbek Baxtiyorovich, and Muazzamoy Abduqodir qizi Abduraimova. "ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO ‘RINISHLARI." Educational Research in Universal Sciences 1.3 (2022): 288-296.

17. Qizi, Abduraimova Muazzamoy Abduqodir. "PROJECTION AND AXONOMETRY."

18. "UMUM TA‘LIM MAKTABLARDA CHIZMACHILIK FANINI O‘QITISHNING HOZIR HOLATI." Oriental Art and Culture, Vol. 5, No. 6, 2024, pp. 65–69.

19. Khakimjanovch, I. M. A., & Abduqodirovna, A. M. Capabilities OF Computer Graphics. General Information About Graphic Programs. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(11), 114-117.

20. Mirzaev, S. O. Methodology for Organizing Exhibitions AND Creative Activities in Primary Schools. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 13(12), 150-154.

21. Ismonov, X. B., & Abduraimova, M. A. AUTOCAD DASTURIDA TUTASHMA BILAN ISHLASHNING MAQBUL USULLARI.

22. Ismonov, X., Rustamov, U., & Abduraimova, M. (2022). PERSPEKTIVA. PERSPEKTIV MASSHTABLAR. Science and innovation, 1(C6), 164-171.

23. Olimovich, M. S., Baxtiyorovich, I. X., & Shokirovna, Z. M. (2020). Problems of teaching fine arts and its history. ACADEMICA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL Учредители: Diva Enterprises Private Limited, 10(4), 69.

24. Mirzaev, S. O. Methodology for Organizing Exhibitions AND Creative Activities in Primary Schools. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 13(12), 150-154.

25. ОЛИМОВ, Л., МИРЗАЕВ, С., & ДАРМОНОВ, И. ТАСВИРИЙ САНЪАТ МУТАХАССИСЛИГИ ТАЛАБАЛАРИГА АДСОРБЦИЯ ҲОДИСАСИНИ ЎҚИТИШ. ИЛМИЙ ХАВАРНОМА. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабура, (3), 111-112.

26. Mirzayev, S. O. TASVIRIY SAN‘AT DARSLARINI MAZMUNLI TASHKIL ETISHDA SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH.